



Fidoyilik —  
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 23-may, seshanba,  
61 (23.782)-son

**KUN  
HIKMATI**

Barchaning birdek  
fikrlashi -  
jamiyatning  
yutug'i, birdek  
gapirishi - fojia

1913-yil aprel oyidan chiqqan boshlagan



[www.zarnews.uz](http://www.zarnews.uz) <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) [https://twitter.com/zarnews\\_uz](https://twitter.com/zarnews_uz)



## SICHUANDA TADBIRKORLAR FORUMI

**Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib turgan viloyat hokimi Erkinjon Turdimov ushbu mamlakat mintaqalari rahbarlari va yirik kompaniyalar yetakchilari bilan muzokaralar o'tkazildi.**

Xususan, "Xinjiang Bio-engineering" kompaniyasi rahbari bilan uchrashuvda viloyatimizda qon mahsulotlari ishlab chiqaradigan farmatsevtika zavodi va tarmoq klinik diagnostika laboratoriyasiga ega plazma markazlari tarmog'ini qurish masalasi atrofida muhokama etildi va kelishuvga erishildi.

viloyat hokimi Erkinjon Turdimov davlat rahbarlarining oliy darajadagi tashriflari davomida erishilgan kelishuvlarning birgalikda amalga oshirilishi natijasida bugungi kunda ko'p qirrali O'zbekiston-Xitoy hamkorligi izchil rivojlanib, aniq va boy mazmunga ega bo'layotganligini ta'kidladi.



Misni to'liq qayta ishlash bo'yicha dunyoda yetakchilardan bo'lgan "Xinjiang Qianwei Golding Cable Co. Ltd" va "Amer International Group (AMER #1)" rahbariyati bilan uchrashuvda esa Samarqandda misni to'liq qayta ishlash, smart uskunalar hamda avtomobillar uchun moy ishlab chiqarish bo'yicha ishlangan loyiha atrofida muhokama etildi. 2023-yilning avgust oyidan boshlab 2025-yilning dekabr oyigacha bo'lgan muddatni qamrab olgan loyihaning har bir bosqichini amalga oshirishga e'tibor qaratildi.

Kecha Sichuan muzofotida esa mahalliy va samarqandlik ishbiarmonlar ishtirokida tadbirkorlar forumi o'tkazildi.

Forumda so'zga chiqqan

Shuningdek, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqib, yashil energetika, elektrotexnika, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, ilm-fan, metallurgiya, qurilish, turizm va boshqa sohalarida hamkorlik aloqalarini yanada yaxshilash ikki mintaqada ishbiarmon doira vakillari va tadbirkorlari oldida turgan dolzarb masala ekanligini bildirdi.

Viloyat hokimi sichuanlik tadbirkorlarning Samarqandda biznes faoliyatini olib boshishi, investitsion loyihalarni amalga oshirishdagi ishtirokini qo'llab-quvvatlashi va buning uchun ularga barcha imkoniyatlar yaratilishini bildirdi.

Forumda ikki mintaqada tadbirkorlari qator kelishuvlarga erishdi.

## "BOQIY SHAHAR"GA JIL BERGAN ETNOFESTIVAL

**Xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" majmuasida "Besh qit'a jilosi" etnofestivali o'tkazildi.**

Tadbir viloyat musiqali drama teatri aktyorlari tomonidan Samarqand tarixidan so'zlovchi sahna ko'rinishi bilan boshlandi. Etnofestivalda viloyatda faoliyat olib borayotgan milliy-madaniy markazlar vakillarining chiqishlari namoyish etildi.

- Samarqandda ikkinchi marta mehmon bo'lib turibman, - deydi hindistonlik sayyoh Suhan Gopal. - Bundan 9 yil oldin do'stlarim bilan kelgan edim. Bu gal oilam bilan sayohatga keldim. Shaharda juda katta o'zgarishlar bo'libdi. Yangi bunyod etilgan sayyohlik majmuasini ko'rib, ko'zimiz quvnadi. Ayniqsa, safarimiz davomida etnofestivalni tomosha qilish baxtiga muyassar bo'ldik. Bu yerda turli millat vakillarining urf-odatlarini, an'analarini yaqindan tanishdik.

Urgutning "Beshqarsak" folklor ansamblining ashulalari tadbir ishtirokchilari, ayniqsa, sayyohlar olqishiga sazovor bo'ldi.

# "GAZDAN SUYUQLIKKA"

QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYASI BO'YICHA JAHON YETAKCHILARINING UCHRASHUVI

**Samarqandda "gazdan suyuqlikka" (gas-to-liquids, GTL) texnologiyasi asosida mahsulot ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar vakillari ishtirokida xalqaro forum o'tkazildi.**

Uzbekistan GTL kompaniyasi bilan birgalikda tashkil etilgan tadbir Janubiy Afrikaning Sasol va Daniyaning Haldor Topsoe kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan va hozirda O'zbekistonda qo'llanilayotgan jahon talablari darajasidagi GTL texnologiyalarga bag'ishlandi.

Ta'kidlash lozimki, GTL texnologiyasi tabiiy gaz resurslariga ega mamlakatlarga neftdan

chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda tabiiy zahiralarning yil sayin kamayib borayotgani neft zahiralardan samarali foydalanish, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni taqozo etmoqda. GTL texnologiyalari esa aynan shu imkoniyatni beradi.

Uzbekistan GTL bosh direktori Faxritdin Abdurasulov konferensiyani GTL texnologiyasini yanada rivojlantirish uchun



qayta ishlanadigan qimmatbaho suyuq yoqilg'ilarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Ushbu noyob qayta ishlash jarayonlari tabiiy gazni benzin, dizel va kerosin kabi suyuq yoqilg'iga aylantira oladi.

Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston yiliga 60 milliard kub metr ga yaqin tabiiy gaz qazib olish bilan dunyoda eng yirik gaz ishlab

muhim voqea, deb atadi.

- Men ushbu forumni neft va gaz sanoati uchun muhim voqea deb bilaman - dedi u. - Biz tabiiy gazdan sintetik suyuq yoqilg'i ishlab chiqarishga ixtisoslashgan qator mutaxassislarni birlashtirganimizdan faxrlanamiz. Konferensiya fikr almashish uchun ajoyib maydonga aylanib, bu sohada yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishga olib

kelishi mumkin. Biz O'zbekiston jahon energetika sanoatiga o'zgartiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan GTL texnologiyalarining global markaziga aylanganidan faxrlanamiz.

Konferensiyada Sasol kompaniyasining LTFTM va Haldor Topsoe kompaniyasining SynCOR texnologiyalari asosida qurilgan GTL uskunalaridan foydalanadigan kompaniyalar muhandis va texnik xodimlari ishtirok etdi. Ular o'zaro tajriba almashish bilan birga, keyingi rivojlanish istiqbollari belgilab oldilar, GTL texnologiyasidagi samaradorlikni oshiradigan yangiliklarni muhokama qildilar.

- Bu biz uchun yangi texnologiyalar asosida O'zbekiston sharoitida bajarilgan ishlarni hamkorlarimiz bilan tahlil qilish uchun qulay imkoniyat bo'ldi, - deydi "O'zbekneftgaz" aksiyadorliklari jamiyati gazni qayta ishlash departamenti boshlig'i Alisher Bahodirov. - Xorijlik

mutaxassislar, shu soha bo'yicha yirik kompaniyalar vakillari bilan kelgusidagi rejalarimizni belgilab oldik. Jumladan, endilikda sintetik yoqilg'idan tashqari, sintetik neft-kimyo mahsulotlari ishlab chiqarmoqchimiz. Shuningdek, hozirda "O'zbekneftgaz"da "kondan tayyor mahsulotgacha" tizimi bo'yicha raqamlashtirish jarayoni kechmoqda. Daniyaning Haldor Topsoe kompaniyasi texnologiyasi asosida sintez gaz ishlab chiqarishda nou-xaulardan foydalanilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston GTL texnologiyasi bo'yicha sintetik yoqilg'i ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan dunyodagi beshta davlat qatoriga kirdi.

Konferensiya davomida jahondagi yetakchi GTL zavodlari, jumladan, Uzbekistan GTL, Oryx GTL, Escravos GTL va Topsoe SynCOR bo'yicha texnik ta'dqiqotlar taqdim etildi.

**Alisher ISROILOV.**

## Xattotlar ko'chirgan Qur'on kitobi

sayyohlar e'tiborini tortdi

**Samarqand shahridagi Registon maydonida ziyorat turizmi yarmarkasi va ko'rgazmasi o'tkazildi.**

Tadbir davomida viloyatimizning qo'li gul hunarmandlari o'zlari tayyorlagan mahsulotlari bilan ishtirok etdi. Ular tomoshabinlarga shu yerning o'zida hunarmandchilik mahsulotlari tayyorlanish jarayonini ko'rsatib berdi. Bu sayyohlarning, xususan, xorijliklarning e'tiborini tortmay qolmadi.

- Bugungi ko'rgazmada xattotlik san'ati namunalari namoyish etyapmiz, - deydi hunarmand Abduljalil Ergashev. - Ayniqsa, 60X80 santimetr hajmdagi Samarqand qog'oziga yozilgan Qur'on kitobi ko'pchilikni qiziqtirayapti. Buni shogirdim Aziza Sobirova bilan hamkorlikda tayyorlaganmiz. Aziza nasx xatini yozgan. Kufi va suls xatlari bilan o'zim shug'ullanganman. Tayyorlanish jarayoni 4 yil davom etgan.

Tadbir davomida viloyat hokimining o'rinbosari Rustam Qobilov ishtirok etdi.

**To'liq SIDDIQOV,  
Baxtiyor MUSTANOV (surat).**



**Joriy yil umumiy o'rta ta'lim maktablari-da so'nggi qo'ng'iroq tadbirlarini o'tkazish bo'yicha Maktabgacha va maktab ta'limi va-zirligi tomonidan tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.**

## "SO'NGGI QO'NG'IROQ"ni

qanday o'tkazamiz?

Unga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida so'nggi qo'ng'iroq tadbirlari 25-may kuni soat 8:00 dan 9:00 ga qadar "Ilmni qadrlang, ilmga intiling!" shiori ostida tashkil etiladi. Tadbirga maktabdagi o'quvchilar sonidan kelib chiqqan holda, faqatgina 1-, 4-, 9- va 11-sinf o'quvchilari jalb etiladi.

Tadbir davomida maktab hayotida faol ishtirok etayotgan, odob-axloqi, intiluvchanligi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan o'quvchilarning ota-onalariga tashakkurnomalar beriladi, o'quv yili davomida namunalari xulqi va a'lo baholarga o'qib, eng yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishgan iqtidorli bitiruvchilar taqdirlanadi, faxriy o'qituvchilar, ota-onalar, mahalla va hamkor tashkilotlar, shuningdek, maktabning o'rnak bo'ladigan sobiq bitiruvchilari tadbirga taklif etiladi.

So'nggi qo'ng'iroq tadbirlarini o'tkazish davomida nazorat imtihonlari va yakuniy davlat attestatsiyalarini o'tkazishda ta'lim muassasalarini yangi o'quv yiliga tayyorlash borasida o'quvchi va bitiruvchilar hamda ularning ota-onalaridan turli xil pul mablag'larini yig'ish, umumiy o'rta ta'lim muassasalarini rahbarlari hamda o'qituvchilarga bitiruvchilar tomonidan turli qimmatbaho sovg'alar taqdim etish, qo'shimcha tantanali tadbirlarni o'tkazish taqiqlanadi.

**Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi axborot xizmati.**

## AZIZ SANJAR ILMY LABORATORIYASIDA

qanday tadqiqotlar o'tkazish mumkin?

**Xalqaro Nobel mukofoti sohiblari yurtimizga, qolaversa, qadim va navqiron Samarqandga har doim ham kelavermaydi. Yaqinda ana shunday tarixiy voqea yuz berdi.**



Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti kimyo fakultetida Nobel mukofoti sohibi Aziz Sanjar ishtirokida uning nomi bilan ataladigan zamonaviy ilmiy laboratoriya ochildi.

Asli kelib chiqishi Turkiyadan bo'lgan professor Aziz Sanjar AQShda yashab, Shimoliy Karolina universitetida ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi mashhur, dunyo tanigan va tan olgan biokimyogardir. Olim so'nggi 15-20 yil oralig'ida zamonaviy dunyoning eng og'ir xashtaliklaridan biri bo'lgan saraton bilan zararlangan hujayraning DNK tizimini tuzatishning biokimyoviy mexanizmlarini ishlab chiqqan va ushbu muhim tadqiqoti uchun 2015-yilda kimyo fanlari bo'yicha xalqaro Nobel mukofotiga loyiq ko'rilgan.

Biokimyolaboratoriyasi Rossiya, Yaponiya, AQSh kabi davlatlarda ishlab chiqarilgan 10 ga yaqin zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan. Bu uskunalarda organik va noorganik materiallar, kimyo sohasida moddalar tadqiqi va kompleks birikmalar sintezini amalga oshirish, nanomateriallar xossalari o'rganish, moddalar tarkibini miqdor

va sifat jihatdan tahlil qilish, biofaol birikmalarni aniqlash va boshqa bir qator muhim yo'nalishlarda ilmiy tahlil, tajribalarni amalga oshirish mumkin.

Zamonaviy tahlil usullari laboratoriyasi ko'p tarmoqli bo'lib, bir vaqtning o'zida kimyo, biologiya, farmatsevtika, tibbiyot, oziq-ovqat sanoati, parfumeriya, materialshunoslik, biologik tadqiqotlar, atrof-muhit muhofazasi, konchilik va gaz kimyosi, qishloq xo'jaligi sohaslarida yuqori aniqlikdagi ilmiy tadqiqotlar o'tkazish imkonini beradi.

Hozirgi kunda kimyo xalq xo'jaligida katta ahamiyatga ega. Fan, ishlab chiqarish, sanoat, chorvachilik va boshqa sohalarning kimyo qo'llanilmaydigan birorta ham tarmog'i yo'q, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Kimyo texnologiyasi bo'yicha hozircha rivojlangan davlatlar bilan raqobatlasha olmaymiz. Ammo hozirda mamlakatimizda aynan kimyo texnologiyalariga, qolaversa, ilm-fanga e'tibor oshmoqda. O'ylaymanki, yaqin kelajakda bu bo'yicha yetakchi davlatlar qatoriga kira olamiz.

Ilm-fanning yuqori cho'qqilariga erishmoqchi bo'lsak, laboratoriyalar-

ni aniqligi yuqori bo'lgan zamonaviy jihozlar bilan ta'minlashimiz juda muhim.

Mazkur laboratoriya jihozlari-ning bir qismi Islom taraqqiyot banki ishtirokida oliy ta'lim muassasalariga beriladigan moddiy yordam sifatida keltirilgan. Ayni kunda mamlakatimizdagi 25 ta oliy ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini boyitishda ana shu bank ko'magidan foydalanilmoqda.

Aytish joizki, bu faqat Samarqandda emas, butun mamlakatimiz ilm-faniga taalluqli katta va muhim voqea bo'ldi. Bu zamonaviy laboratoriyalar yordamida muhim ilmiy ishlarni amalga oshirish mumkin.

Qolaversa, ilmga chanqoq o'g'il-qizlarimizga yaxshi imkoniyat bo'ldi. Sakkiz turdagi zamonaviy qurilmalar bilan jihozlangan ilmiy laboratoriya xalq xo'jaligining kimyo, farmatsevtika, tibbiyot, oziq-ovqat sanoati, biologik tadqiqotlar, konchilik kabi sohalarda tadqiqotlar olib borish imkoniyatiga ega. Shuningdek, molekulyar biotexnologiyalar va zamonaviy botanika asoslari hamda vivariy, biofiziologik, biokimyoviy tadqiqotlar ilmiy laboratoriyalari ham sohaga qiziquvchan yoshlar uchun katta imkoniyatdir.

Xalqaro Nobel mukofoti sohibi bilan muloqot talabalar, magistrlar va doktorantlarga motivatsiya berdi. Buni ularning yuz-ko'zidan, bo'lib o'tayotgan savol-javoblardan sezish mumkin.

Laboratoriyada bugungi kunda nafaqat sohaga oid ilmiy tadqiqotlar, balki tibbiyot, atrof-muhit muhofazasi, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibidagi zararli moddalarni aniqlash, sanoat va boshqa ishlab chiqarish tarmoqlari uchun tadqiqot obyektlari tahlillari o'tkazilayotgani barchani quvontiradi.

**Xudoynazar YUNUSOV, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.**

## Transport vositasi haqida mutaxassis fikri

Davlat tashkilotida shunday xizmat ko'rsatiladimi?

**- Avtoullov bilan bog'liq ko'ngilsizlikka duch kelgan-dim. Biroq muammoni hal etishda transport vositasini baholovchilardan ko'nglim to'lmayapti. Bu borada qaysi tashkilotga murojaat qilsam bo'ladi?**

**S.XOLIQOV, Jomboy tumani.**



**HUQUQIY MASLAHAT**



Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazining viloyat bo'limida bajariladigan umumiy ekspertizalarning o'ttiz foizdan ko'pi transport-baholash ekspertizasiga to'g'ri keladi.

Transport vositalarini baholashda sudlarning ajrimlariga asosan ekspertiza xulosalari beriladi. Shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha ham tadqiqotlar o'tkazilib, mutaxassis fikr taqdim etiladi.

Transport-baholash ekspertizasi 1999-yildan kuchga kirgan "Baholash faoliyati to'g'risida"gi Qonun va yagona milliy baholash standartlari bo'yicha o'tkaziladi.

Hozirgi kunda barcha sug'urta idoralari transport-baholash tadqiqotlari aynan X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazida o'tkazilishiga talabgor.

Mutaxassis fikrini olishda eksperti-ta tayinlash to'g'risida sud ajrimi taqdim qilinmaydi. Ya'ni, sudning vakili tomonidan transport vositasini ekspert ko'zdan kechirishini tashkil qilish, ko'zdan kechirish bayonnomasini tuzish, ekspert tomonidan sudga kamchiliklarni bartaraf qilish to'g'risida iltimosnomalar yuborish va sud tomonidan kamchiliklarni bartaraf qilish kabi muddat talab qiladigan jarayonlar bo'lmaydi.

Bunda baholanishi zarur bo'lgan transport vositasining egasi zarur hujjatlar va baholanadigan transport vositasi bilan kelib, murojaat qilishi, tegishli to'lovlarni amalga oshirishi kifoya. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga asosan mutaxassis fikrlarini ishlab chiqish muddatlari 10 kunni, ko'pi bilan 15 kunni tashkil qiladi.

**M.TO'XTAMISHOV, X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi viloyat bo'limi eksperti.**

**Bolalar tug'ilmaslik uchun hali ona qornidayoq signal bera boshlaydi.**

**"Yo'q, bu yorug' olamga chiqqim yo'q, men bunday muhitda yashashni istamayman!", deya bu haqda onasiga belgi jo'natadi. Ya'ni, onaning peshonasida ayri-ayri dog'lar paydo bo'ladi. Jamiyat bunday tadqiqotdan hayratga tushadi. Bolalar bu dunyoga kelishni istamayapti, axiri!**

**Jamiyatda yuz berayotgan ba'zi voqealarni tahlil qilar ekansiz, beixtiyor Chingiz Aytmatovning "Kassandra tamg'asi" asarida yuz bergan holatlar xayolingizda jonlanadi.**

**Shu kunlarda ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda zo'ravonliklar, ayniqsa, yosh qizlarga nisbatan zo'ravonliklar haqidagi xabarlarni o'qir-kansiz, uning ildizlari qayerda, degan savol qarshisida qolasiz. Kassandra tamg'asi yozuvchining xayolotimi yoki bashoratimidi?**

### NAMUNALILARDA HAM KEMTIKLAR BOR

Har bir jinoyatning o'z ildizlari, sabablari bo'lganidek, zo'ravonlikning ham biz bilmagan, hatto taxmin etmagan o'tmishi, asoslari bor. Qayerdadir yopiq ko'rinishda, qaysidir vaziyatda oshkor bo'lib qoladigan ushbu yovuzlik har qanday holatda ham bir kuni oshkor bo'lishi tayin.

Jinoyatga qo'l urgan ko'plab bolalar oilasi bilan qiziqqanman. Barchasida deyarli bir xil ahvol: o'sha oilada nosog'lom muhit. Yo ota zo'ravon, ichkilikka berilgan yoki ona bolasidan yuz o'g'irgan. Bir qaraganda, masalani hal etishning hech imkoni yo'q. Axir farzandga ota-onadan ham yaqinroq inson bo'lishi mumkinmi? Agarki ota-onasiga kerak emas ekan, bu haqiqatni anglagan bola yuragini nima bilan to'ldirish mumkin? Afsuski, bugun nafaqat notinch, balki namunalni hisoblangan oilalar farzandlari orasida ham jinoyatga qo'l urish holatlari ko'p uchramoqda.

- Shu yilning o'zida voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir bo'lgan huquqbuzarliklar uchun 1270 holatda ota-onalarga ma'muriy javobgarlik belgilandi, - deydi viloyat IIB huquqbuzarliklar profilaktikasi boshqarmasi mas'ul xodimi Anvar Doliyev. - Ular orasida muntazam dars qoldirish, yengil tan jarohati yetkazish, haqoratlash kabi huquqbuzarliklar mavjud. Yoshlar orasida bu kabi huquqbuzarliklarning oldini olish uchun umumta'lim maktablarida inspektor-psixolog shtatlari joriy etildi, o'quvchilar bilan ishlashda ular o'qituvchilarga ko'makdosh bo'lyapti. Ko'pchilik huquqbuzarlik sodir etgan bolalar asosan notinch oilalar farzandlari deb o'ylashadi. Afsuski, unday emas. Keyingi paytda

# "KASSANDRA TAMG'ASI"

biz namunalni deb hisoblaydigan oilalarda ulg'ayayotgan farzandlar orasida ham jinoyatlarga qo'l urayotganlari uchramoqda. Nega? Chunki bugun yoshlar tarbiyasi faqat oila yoki atrof-muhitdan emas, balki tarbiyaga salbiy ta'sir qiluvchi har qanday axborotdan turli ko'rinishda (video, audio) ham olayotgani hech kimga sir emas. Kingadir ushbu axborotlar ta'sir qilmaydi, ammo insonlar bir xil bo'lmaganidek, internet olamidagi axborotlardan turlicha ta'sirlanadigan o'smirlar ham ko'p.

Viloyat IIB HPBga bevosita bo'ysunuvchi, voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko'rsatish markaziga yil davomida 307 nafar bola olib kelingan bo'lib, shundan 4 nafari sodir etgan qoidabuzarliklariga asosan respublika o'quv-tarbiya muassasalariga, 8 nafari "SOS - O'zbekiston bolalar mahallalari" Samarqand filialiga joylashtirilgan.

...Biolog olim Filofey (Kassandra tamg'asi)ning bosh qahramoni) ilmiy tadqiqotlari davomida aql bovar qilmasa yangilikka qo'l uradi. Uning yangiliklari tegishli rahbarlarga yetib boradi va uni o'z huzurlariga chaqirtirib, "Sizning kashfiyotingiz, ta'bir joiz bo'lsa, qo'lbola biologiyaning kashfiyotlari - bu odam tabiatiga chuqur kirib borish, aslida esa inson shaxsini qayta qurish, shaxsning kelib chiqishini, jamiyatdagi o'rni va rolini o'zgartirish, keyinchalik esa sun'iy tug'iladiganlar matrisasiga asosan butun insoniyatni qaytadan yaratish imkoniyati demakdir..." deb, uning oldiga vazifa qo'yishadi: "Butun dunyoda kommunizm g'alaba qozonishi uchun bizga ota-onasi noma'lum, sun'iy yetishtirilgan ikszurriyotlar kerak".

Ular insoniyatning genida mavjud barcha nobopliklarni o'zidan soqit qilgan holda tug'ilishi, bir so'z bilan aytganda, kimligi, qayerdanligi, nasl-nasabi noma'lum bo'lgan, o'tmishi bilan qiziqmaydigan ikszurriyotlar kerak edi jamiyatga. Filofey uzoq yillik jazoga tortilgan mahkumalarni tanlab olib, ushbu topshiriqni amalga oshirishni boshlab yuboradi. Keyin ilmiy ekspeditsiya bilan kosmosga uchadi. Koinotdan turib, u qanchalik adashgan hamda dahshatli xatoga yo'l qo'yganini angelaydi. Axir bu ikszurriyotlar ulg'ayib, aqlini tanigach, kimligi, qayerdan paydo bo'lganlariga albatta, qiziqadi va haqiqatni anglagach, butun dunyoni ostin-ustun qilib tashlaydi-ku, axir...

### MUASSASALAR OILALARGA AYLANTIRILDI

Bugun faqat notinch oilalarga huquqbuzarliklar o'chog'i bo'lishi mumkin, degan qarashlarga chek qo'yish fursati kelgan. Bu masalada qaysidir oila bilan alohida ishlab bo'lmaydi endi. Yana bir ichki qoida bor jamiyatda: "Mehribonlik uylari bolalari orasida jinoyatchilikka moyillik ko'proq bo'ladi." Afsuski, bugun jamiyatda buning aksini ham kuzatyapmiz, bu muassa-

salardagi bolalar ko'proq zo'ravonlikka uchrayapti.

Bolalar alohida mehr istaydi, ular ijtimoiy muassasaga emas, aniq bir insonlarga farzand sifatida berilishi, oila muhitida yashashi kerak, degan tushuncha va boshqa ko'plab omillar sabab bu masalada jiddiy islohotlar o'tkazildi.

Bugungi kunda viloyatda 4088 nafar bola - vasiylik va homiylikda, 78 nafar bola "SOS - O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasi Samarqand filialida, 51 nafar bola 9 ta Oilaviy bolalar uyida, 46 nafari viloyat bolalar uyida, 41 nafar bola - 28 ta patronat oilalarda tarbiyalanmoqda, - deyiladi Bolalar masalalari bo'yicha viloyat komissiyasi vakili Sh.Quvvatovning xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyasidagi axborotida. - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-ona qarmog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Mehr daftari" tizimi joriy etilib, hozirda 627 nafar bola ushbu platformaga kiritilgan. Shulardan 576 nafar bolaning orzu-istaklari o'rganilib, ularga 130 turdagi 1257 ta mahsulotlar olib berildi. Jumladan, 224 dona noutbuk, 42 dona planshet, 47 dona telefon, 22 komplekt sport anjomlari, 52 dona velosiped, 96 ta mebel jihozlari, 73 dona tikuv mashinasi, 80 dona badiiy hamda tillarni o'rgatishga qaratilgan kitoblar va shu kabi narsalar bolalarning muammolarini hal etish, iste'dodli bolalarni qo'llab-quvvatlash, hayotga tayyorlash, ularning ta'lim-tarbiyasini tashkil etish, kasbga yo'naltirish va bandligini ta'minlash maqsadida xarid qilindi.

2022-yilda 36 nafar yetim bola uy-joy bilan ta'minlangan bo'lsa, joriy yilda 48 nafar bola uy-joy uchun navbatga qo'yilgan.

Joriy yilning birinchi uch oyli mobaynida viloyatda 98 nafar bola ota-onalarining notarial roziligi va sud qaroriga asosan qarindoshlariga, 5 nafar yetim va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bola esa farzand asrab olish istagida bo'lgan oilalarga berilgan. Bundan tashqari, ishlash uchun chet davlatga ketgan ota-onalarning 580 nafar farzandlari hamda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan 51 nafar bolaga vasiylik va homiylik tayinlangan.

Ammo kamchiliklar ham yo'q emas. Misol uchun, maktab psixologlari tomonidan noto'liq va nosog'lom oiladagi o'quvchilar bilan alohida ishlash tashkil etilmagan. Mahalla tomonidan shunday oiladagi ijtimoiy muhitni sog'lomlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmagan. Mahalla xotin-qizlar faollari tomonidan ushbu toifadagi oilalar bekalari bilan

manzilli ish olib borilmaganligi oqibatida aksariyat qizlar noto'g'ri yo'lga kirib qolmoqda.

...Aslida Filofey kim? Asar davomida uni o'z tuqqan onasi mehribonlik uyiga tashlab ketgani ma'lum bo'ladi. "O'shanda, - eslaydi Filofey, - qalin qor edi. Men o'sha subhi sodiq paytini es-es bilaman desam, bunga hech kim ishonmaydi, albatta. Nailoj, to'g'risini gapiraman. O'shanda qulog'imga onamning qadamlari ostida qorning g'arch-g'urch ovozi eshitilgan. Yodimda, onam o'sha qish kuni, kallayi saharda shosha-pisha qadam tashlar edi. Esimda, u bezovtalanib, meni bag'riga bosar, dam-badam seskanib, cho'chib tushar edi, onam yuragining qo'rqinch aralash gupillab urganini mening norasta tanam sezar edi..."

O'qishni bitiradi va biolog olim bo'lib yetishadi, olamshumul kashfiyotlarga qo'l uradi. "Mening omadim



# TANLOVDA QATNASHING!

SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI QUIYDAGI KAFEDRALAR BO'YICHA BO'SH LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

- 1-SON DAVOLASH FAKULTETIGA:**
  - ichki kasalliklar propedevtikasi kafedrasiga assistent - 1 o'rin.
- 2-SON DAVOLASH FAKULTETIGA:**
  - 1-son akusherlik va ginekologiya kafedrasiga assistent - 1 o'rin;
  - patologik anatomiya kafedrasiga (seksion-biopsiya kursi bilan) assistent - 1 o'rin;
  - 4-son ichki kasalliklar kafedrasiga dotsent - 1 o'rin.
- PEDIATRIYA FAKULTETIGA:**
  - neyroxirurgiya kafedrasiga assistent - 1 o'rin.
- TIBBIY PEDAGOGIKA FAKULTETIGA:**
  - ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasiga katta o'qituvchi - 1 o'rin;
  - teri-tanosil kasalliklar kafedrasiga kafedra mudiri - 1 o'rin;
  - tibbiy rehabilitatsiya, sport tibbiyoti va xalq tabobati kafedrasiga assistent - 1 o'rin;
  - pedagogika-psixologiya kafedrasiga dotsent - 1 o'rin.
- STOMATOLOGIYA FAKULTETIGA:**
  - bolalar stomatologiyasi kafedrasiga assistent - 1 o'rin;

- ortopedik stomatologiya kafedrasiga assistent - 1 o'rin;
  - og'iz bo'shlig'i jarrohligi va dental implantologiya kafedrasiga - 1 o'rin.
  - DIPLOMDAN KEYINGI TA'LIM FAKULTETIGA:**
    - tibbiy radiologiya kafedrasiga assistent - 1 o'rin.
  - Kafedra mudiri** lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi ilmiy darajasiga, professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.
  - Dotsent** lavozimini egallash uchun tanlovda fan doktori, fan nomzodi (PhD) ilmiy darajasiga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxslar qatnashishi mumkin.
  - Katta o'qituvchi yoki assistent-o'qituvchi** lavozimini egallash uchun tegishli mutaxassislik bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslar (magistr, diplomli mutaxassis) qatnashishi mumkin.
- Hujjatlar gazetada e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.
- Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 18-uy.**

**DA'VOLAR BO'LSA...**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilura Hasanovna notarial idorasida marhum Qamarov Olimjon Qamarovichga (2013-yil 13-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Yusupova Dilura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Abdurrahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Nazrikulov Shavkatga (2014-yil 2-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasida marhum Kuldashv Olimjon G'ulomovichga (2019-yil 14-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida marhum Ergashev Shavkat Sharofovichga (2023-yil 8-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Pulatov Raximga (1972-yil 18-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Pulatov Raximov Muxiddinjon (2016-yil 11-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Raximov Muxiddinjon (2019-yil 12-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.**

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Pulatov Raximov Muxiddinjon (2014-yil 25-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

**Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.**

# TANLOV O'TKAZILADI!

O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali quyidagi lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:

**Katta o'qituvchi lavozimiga:**

- sport psixologiyasi, ijtimoiy-tabiiy fanlar kafedrasiga;
- jismoniy tarbiya, sport nazariyasi va uslubiyati kafedrasiga.

**Tanlovda ishtirok etishni istaganlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:**

Filial direktori nomiga ariza, yashash joyi ko'rsatilgan pasport nusxasi, kadrlarni qayd qilish shaxsiy varaqasi, oliy ma'lumot haqidagi diplom nusxasi. Qatnashuvchilarda ilmiy daraja, ilmiy unvon, shuningdek, ilmiy ishlar va

ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda, ularga tegishli diplomlar, attestatlar nusxalarini, malaka oshirish haqidagi sertifikatlarini taqdim etishlari kerak.

**Eslatma:** Tanlovda ishtirok etish uchun arizalar e'lon chop etilgan kundan boshlab bir oy davomida qabul qilinadi.

**Manzil: Samarqand shahri, Cho'pon ota ko'chasi, 13-"A" uy.**

**Telefonlar: +99866-236-21-28, +99893-357-74-95. e-mail: minsport\_markaz\_sf@umail.uz**

**FILIAL MA'MURIYATI.**

# bugunning bashoratimidi?

chopdi, - deydi u o'z maktubida, - bu sohada manfaatdor tashkilotlar yordami ham chakki bo'lmadi, lekin bu haqda alohida gapiramiz, men bo'lsam, muvaffaqiyatlardan ilhomlanganimdan, shiddat bilan, kuch to'plagan qovoq ariga o'xshab, fan paykali ustida parvoz qilar edim; men kashfiyotdan kashfiyotga uchib, oldinlar hech kimga ma'lum bo'lmagan fikr-g'oyalar shovqinidan gangib yurar, ana shu sohada abadiylik sir-asrorining muallifi - Olohd taoloning o'zini ham orqada qoldirishga tayyor edim. Men ilmiy eksperimentlar doirasida bo'lsa-da, ota-onalar xohlashadimi-yo'qmi, kimning yorug' dunyoga kelishi, qanday tug'ilishi, qanday ota-onalardan tug'ilishini shaxsan o'zim hal qilar edim, ularning urug'laridan nima yarata olishimni bilishsa edi..."

## BOLA QUROL EMAS!

Psixologiyada zo'raonlik holati aynan oilada shakllanadi, degan tushuncha bor. Xo'sh, bu tushunchani kengroq tahlil qilsak, aynan qaysi holatlar bola ruhiyatiga ta'sir etadi, qanday ota zo'raonlik uchun muhit yaratadi?

- Qaysi uyda zo'raonlik sodir bo'lgani haqida gap ketsa, avvalo, o'sha oila muhiti o'rganiladi, - deydi SamDU psixologiya kafedrasiga katta o'qituvchisi, amaliyotchi psixolog Abira Bahromova. - Ota-onaning ma'naviy axloqi yetarli darajada shakllanmagan, oilada sog'lom muhiti bo'lmagan, psixologik muvozanat me'yori buzilgan holatlar kuzatilgan hududda kemtikliklar bo'ladi. Deylik, oilada ota doimiy ravishda ayoliga qo'l ko'tarsa, bola buni normal holat deb qabul qila boshlaydi. Bu masalaning tarbiyaviy tomoni. Ruhijihatdan esa bolaning ongida falajlik yuzaga keladi. U bu paytda onasi tomonida bo'ladi va unda butun dunyoga nisbatan nafrat uyg'onadi, aybdorlikni his qiladi. Bunday oilada o'sgan qiz bola ham bu holatni normal qabul qilib, keyinchalik hayotida shunday voqea sodir bo'lsa, bunga chidab yashash kerak, degan tushunchada qoladi. Psixikasida esa jiddiy nuqsonlar paydo bo'ladi, o'z ichki meni shakllana olmay qoladi. Va kelgusida o'z turmush o'rtog'iga ham baxt berolmaydi. Alohida ta'kidlashni istardim, biz asosan zo'raonlikni ko'rib ulg'ayish faqat o'g'il bolalarga yomon ta'sir qiladi, ular kelgusida o'z ayoliga shunday munosabatda bo'ladi, deb o'ylaymiz.

Aslida qiz bola



uchun ham bu jiddiy ziyon. Ya'ni, u turmushga chiqqach, oiladagi muhit sabab o'z shaxsiyatini shakllantira olmagach, turmush o'rtog'iga ham yetarlicha baxt berolmaydi, ya'ni uning ham oxir-oqibat quyushqondan chiqishiga sababchi bo'lib qoladi.

Keling, shu o'rinda zo'raonlik tushunchasiga kengroq to'xtalsak. Zo'raonlik jismoniy, ruhiy, jinsiy, iqtisodiy ta'sir o'tkazish yoki shunday ta'sir o'tkazish orqali insonlarning hayoti, sog'lig'i, jinsiy daxsizligi, qadr-qimmat va qonun bilan himoya qilinadigan barcha erk va huquqlariga tajovuz harakati, deb aytiladi. Moliyaviy cheklab qo'yish, ya'ni hayot uchun zarur bo'lgan elementar moddiylik ta'minlanmasa, iqtisodiy bosim deyiladi. Ruhijihat bosim o'tkazib, kamsitib, laqab qo'yib, inson o'rmda ko'rmasa, bu - psixologik zo'raonlik. Jinsiy ehtiyojlarini noan'anaviy tarzda qondirish, bolalarning nomusiga tegish, kaltaklash va hokazolar jismoniy zo'raonlikka kiradi.

Ko'pincha biz asosan, eraklar zo'raon, deb ayuhannos solamiz. Agar uning ildiziga borib qarassak, bu bolalikdagi qalb jarohatlari bilan bog'liq bo'lsa (oiladagi notekisliklar, nosog'lom muhit, janjal bo'lmassa-da, ammo ota-ona be'e'tibor, bemehr bo'lgan oilada ulg'aygan bolalar), ikkinchi tomondan, onaning bola qalbiga o'z vaqtida yo'l topa olmagani, unga mehr ko'rsatmagani ham bog'liqdir.

Ayollar zo'raonligi jismoniy bo'lmaydi, lekin ta'sir kuchi kuchli bo'ladi. Ya'ni, erak kishini tushunmaslik, uning ruhiyatiga doimiy ravishda ta'sir ko'rsatish ham bir kun vulqon bo'lib otilishi mumkin. Qolaversa, ba'zida kichik kelishmuvchiliklarda ham ayollarda bolani qurol qilish holati bor. Afsuski, bugun ba'zi idoralar vakillarinig biz har qanday holatda ham ona tomondamiz, deyihi noto'g'ri. Bunday fikr ayollarda men bolani qurol qilib olishim mumkin, u mening bolam, istaganimni qilaman, degan tushunchaning yanada mustahkamlanishi zamin yaratadi. Bugun ijtimoiy tarmoqlarda tarqalayotgan farzandi va o'zining joniga qasd qilishga uringan ayollarning ham o'tmishida kemtikliklar bor.

Qizlarni oilaga tayyorlash deganda, biz faqatgina ularni ro'zg'or ishlarini bajarishga tayyorlashni emas, balki dunyoqarashini kengaytirishga ko'proq e'tibor berishimiz kerak. Juda ko'p uchratganman, dunyoqarashi keng, hunari, ilmi bor ayollar oilada muammoga duch kelsa, vaziyatdan chiqib ketishning o'nlab usuli haqida bosh qotiradi. Ammo qo'lga kitob ushlamagan, oilani faqat yaxshi taom tayyorlash va er, qaynona xizmatini qilish deb tushungan qizlar zo'raonlikka chidab yuradi yoki o'ziga, farzandiga jismoniy, ruhiy shikast yetkazadi.

...Filofey fazodagi maxsus laboratoriya imkoniyatlaridan foydalanib, yana bir dahshatli xitro qiladi: homilador ayollar qornidagi zurriyotlar o'zlari



haqida tovush-belgi berayotganligini aniqlaydi, homilalar bilan maxsus nur orqali aloqa o'rnatadi. Ular isyonini tinglaydi: "Erkim o'zimdagi bo'lganida tug'ilgandan ko'ra, tug'ilmaslikni afzal ko'rardim. Yashashni istamayman, dunyoga kelishni xohlamayman. Bordi-yu meni tug'ilishga majbur etsalar, unda mening taqdirim peshonamga yozilganidek bo'ladi. O'ylanglar, hal qilinglar, eng avvalo, onam hal qilsin..."

Ya'ni, homila o'zining kelajagi haqida aniq ma'lumotga ega! U dunyoga kelgach, qanday shafqatsizliklarga ro'baro' bo'lishi, ota-onasining munosabatlari, adolatsizliklari, hatto o'zi ham gunoh ishlarga qo'l urishidan xabardor. Hali tug'ilmagani homilaning onasi peshonasida ana shu isyon belgisi - tamg'a paydo bo'ladi. U o'z ixtirosidan o'z dahshatiga tushib, Yerga xaloskor qidirib murojaat etadi. O'sha chinqirayotgan zurriyot umrini sun'iy ravishda tugatish uchun homilani olib tashlash kerak! Ammo bu Yaratganning irodasiga qarshi chiqish degani-ku. Lekin tug'iladigan go'dakning ayanchli taqdirini ko'rib-bilib turib, xotijam yuraverish-chi? Buning o'zi ham jinoyat emasmi?!

Bu savollarning javobidan dahshatga tushgan Filofey shu bilganlari haqida insoniyatga maktub yozadi. Insonlar esa bu maktubni ko'rqub bilan emas, aksincha shovqin bilan qarshi oladi. "Bizning qornimizdagi bola bilan kimning nima ishi bor?!", deydi onalar. Maktubni e'lon qilgan odamni burdalab tashlashadi. Bulardan xabardor Filofey azaliy qismat, taqdir oldida oqilini tan oladi. Orbital stansiyadagi barcha hujjatlarini, tadqiqot natijalarini, kassandra-embriyalar sirini yo'q qilib, Yer bilan o'tkazgan telemuloqoti so'ngida ochiq fazoga sakrab, bo'shliqqa singib ketadi.

**YECHIM BOR**

Badiiy kitobda asar qahramoni yoki muammolarning o'zi ham yo'qlikka mahkum bo'lishi mumkin. Ammo real hayotda unday emas. Mavjud muammoga albatta, yechim izlanishi, imkon boricha uni bartaraf etish usullari qo'llanilishi shart. Ya'ni "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu Qonunning yuzaga kelishi uchun omillar ko'p. Unda aytishcha, bugungi kunda huquqni qo'llash amaliyotida xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bilan bog'liq masalalarda bir qator muammolar mavjud. Xususan, xotin-qizlar va bolalar huquqlariga daxl qiluvchi jinoyat qilmishlar uchun mutanosib sanksiyalar belgilanmagan, xotin-qizlarni shilqimlik va zo'raonlikdan himoya qilishning huququy



kafolatlari mavjud emas, ziyoyiq va zo'raonlikdan jabrlangan shaxsga davlat himoyasini taqdim etuvchi orderning amal qilish muddati (o'ttiz kun) xotin-qizlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini yetarli darajada ta'minlash imkonini bermaydi.

- Qonunchilikda keyingi yillarda xotin-qizlarni turli tazyiq va zo'raonliklardan himoya qilish masalasida o'zgarishlar bo'lmoqda, - deydi advokat Zamira Ishanova. - Xususan, zo'raonlikka uchragan ayonliqan ayollarga himoya orderlari berilishi ilgari tizimda kuzatilmagan edi. Endilikda ushbu huquqbuzarliklar yanada aniqroq malakalangan holda, jumladan, oila a'zolariga nisbatan jismoniy zo'raonlik ishlatilishi, shilqimlik qilish, maishiy zo'raonlik, bolalar, voyaga yetmagan qizlarga nisbatan turli jinsiy tajovuz va boshqa holatlar aniq belgilanib, jazo choralari ham yanada qat'iyashtirildi. Qonunchilikdagi bu o'zgarishlar jamiyatda shakllanib qolgan qator tushunchalar, ya'ni bir-ikki shapaloq bilan hech narsa bo'lmaydi, erning tayog'ini yemagan xotin bormi kabi fikrlarga barham berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiiyki, bu qonunning amaliyotda adolati qo'llanilishi odamlar orasida oiladagi zo'raonlik tushunchasiga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantiradi. Biron bir davlat oiladagi zo'raonlikni qat'iy qonunchilik normalarisiz amalga oshirmagan, buning imkoni ham yo'q.

O'z tajribamdan kelib chiqib aytadigan bo'lsak, bir necha yillar davomida doimiy ravishda jismoniy zo'raonlikka uchrab kelgan ayollar orasida oxir-oqibat turmush o'rtog'ining hayotiga nuqta qo'yishga uringanlari uchragan. Afsuski, bunday ayollarga jazo tayinlashda ularning mutozamm tahqirlangan, ruhiy holati muvozanatdan chiqib ketgani e'tiborga olinmaydi. Chunki bu ayollar hayot shu ekan, deya hech kimga murojaat qilmagan, oiladagi zo'raonlikdan ba'zi qarindoshlaridan boshqa hech kim xabar topmagan.

Xotin-qizlarni tazyiq va zo'raonlikdan himoya qilish masalasidagi qonunchilikdagi o'zgarishlar maishiy zo'raonlikka ham qat'iy jazo choralarini belgilangan bilan ahamiyatli. Endilikda tegishli tashkilotlar hamkorligida bu masalalar o'z o'zani bilan joyida hal etilsa va adolati yechim topsa, yillar o'tib, ushbu huquqbuzarlik bugungi keng ko'lamdan torroq doiraga ayqlanadi.

Darvoqe, mazkur qonunga o'zgartirishlar ijtimoiy tarmoqlarda, ayniqsa, kuchli jins vakillari o'rtasida biroz kinoyaga olindi. Ya'ni, endi xotini urganga falon yil, o'ldirganga pismadoncha yil, qabilida luqmalari tashlandi. Agar yuqoridagi ekspertlarimiz fikriga tayaniladigan bo'lsa, oiladagi zo'raonlik birinchi navbatda o'g'il bolalar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ular voyaga yetganlarida ham o'zlarini kemtik his qiladi yoki zo'raonlikka moyil bo'ladi. Olim Filofey tashvishlangandek, notinch oilalarda, notich jamiyatda homilalar dunyoga kelishni istamaydi. Hali tug'ilmasidan qo'ldan hayot zo'raonliklariga, adolatsizligiga qarshi chiqishdan dahshatliroq hodisa bo'lmasa kerak dunyoda. Dunyodagi illatlar esa jamiyatning kichik bo'g'ini - oiladan boshlanadi. Biz butun dunyodan haqiqat izlashdan avval bu illatlarga oildada chek qo'yishimiz kerak.

**Gulruh MO'MINOVA, "Zarafshon" muxbiri.**



E'tibor berganmisiz, ba'zi davlatlar xorijlik fuqarolarga o'z tilini o'rgatmasdan, vataniga ishgga yoki o'qishga kelishiga yo'l qo'ymaydi. Masalan, yoshlarimiz o'rtasida Janubiy Koreya davlatiga qiziqish katta, ko'plar ishgga borishni istaydi. Biroq ushbu mamlakat xorijliklarni avval koreys tilini bilish darajasini aniqlash bo'yicha xalqaro imtihondan o'tkazib, TOPIK-I yoki TOPIK-II darajani qo'lga kiritganlarga Koreyada ishlashga ruxsat beradi. O'qishga boradiganlar esa TOPIK-III va undan yuqori darajani qo'lga kiritishi lozim. Ular shu orqali ona tilining dunyo bo'ylab yoyilishini istaydi. Ona tiliga bo'lgan hurmat-e'tibor kuchliligi bois shunday qonun-qoidani joriy qilishgan. Xo'sh, bizda-chi? Biz ona tilimizni qay darajada hurmat qilamiz.

## Ona tilini qay darajada bilishimiz kerak?

Bugun yoshlar o'rtasida ona tilidan ko'ra, chet tillarni o'rganishga ishtiyok kuchli. Sababi, chet tilini yaxshi bilgan o'quvchi maktabni tugatmasdan qorijiy oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kiriyapti yoki test sinovlarida chet tilini bilish darajasi bo'yicha xalqaro sertifikatga ega abituriyentlarga o'sha fandan yuqori ball berilyapti. Shuning uchunmi, ba'zi bolalar bog'chalarida ingliz, rus tili o'rgatilyapti. Ayrim ota-onalar farzandi til o'rganishi uchun qo'shimcha repetitora beryapti. Aslida, til o'rganish inson tafakkurini kengaytiradi, fikrlashi, dunyoqarashini o'zgartiradi. Biroq chet tilini o'rganishdan avval ona tilini bilish kerak. Xo'sh, nima uchun?



Agar unda til o'rganishga qiziqish bo'lmasa, darslarni o'zlashtirmaydi. Ona tili grammatikasini puxta o'rgangan o'quvchi esa bemaol boshqa tillarni yaxshi o'rganadi.

Shuning uchun ham biz yosh avlodga, avvalo, ona tilini puxta o'rgatishimiz kerak. Maktablarda ona tili va adabiyotga qiziqtirishimiz, o'quvchilarni badiiy kitoblarga o'qishga jalb etishimiz, g'azal, ruboiy va she'rlar yodlatishimiz lozim.

Ona tiliga mehr oiladan boshlanadi. Yaqinda bir tanishimni uchratib qoldim. O'g'li Rossiya davlatida katta bo'lgan, hozir 12 yoshda.

O'g'lim o'zbek tilini bilmaydi, biz unga rus tilida gapirib, deydi onasi. Bola bilan gaplashdim, u o'zbek tiliga yaxshi tushunyapti, ammo o'z ona tilida gapirishni istamayapti, to'g'rirog'i, ona tilidan or qilyapti. Afsuski, bunday yoshlar atrofimizda ham talaygina. Ba'zilar chet tilini o'rgansa, o'z ona tilidan voz kechib, o'zbek tilida gapirmay qo'yyapti.

O'tgan yili ingliz tilini o'rganish, IELTS olish uchun bir necha o'quv markazlariga bordim, deydi Ruxshona Qilichboyeva. O'quv markazlarida o'zbek tilida gapirishdan uyalayotgan yoshlarni uchratdim. Yoshlar bir-biri bilan chala-chulpa bo'lsa-da, rus tilida gaplasharkan. Qaysi millat o'z ona tilidan uyalganini ko'rgansiz? Boshqa millat vakillari hech qa-

chon o'z an'ana, udum, millati va tilidan uyalmaydi. Madaniyatli xalqni uning o'z ona tilidan faxrlanishidan bilib olishingiz mumkin. Men tengdoshlarimga boshqa tilni o'rganmang demayman. O'rganing, albatta. O'nlab til o'rganing, turli mamlakatlarga boring, ammo o'zbekligingizni va ona tilingizni unutmang, degim keladi.

So'z mulkingning sultoni hazrati Alisher Navoiy bobomiz besh yoshlarida 4-5 tilda so'zlashishni bilgan. Hatto fors tilida go'zal g'azal va ruboiylar yozgan. Shu bilan birga, o'z ona tili bo'lgan turk tilining naqadar boyligi, betakror va jozibadorligini o'z asarlarida isbotlab bergan. Bugun uning boy ilmiy, adabiy merosi butun dunyo xalqlarini o'ziga jalb etmoqda, shuning uchun ham adibning asarlari ko'plab tillarga tarjima qilinayapti. Biroq chet tilini bilish bo'yicha xalqaro sertifikatga ega yoshlarimizning ko'pchiligi Alisher Navoiy bobomizning g'azal va ruboiylarini bilmaydi. Ona tiliga mehr aslida Navoiyni o'rganishdan boshlanishi kerak emasmi?

Bilasizmi, jaded bobolarimiz bolaga avval ona tilini, tarixni, dini puxta o'rgatib, keyin chet elga o'qishga yuborish kerak, deyishgan. Shunday qilinsa, bolalarimiz bilim olgach, Vatanga qaytib, mamlakat rivojiga hissa qo'shadi, aks holda, o'sha yurtda qolib ketadi, deb hisoblashgan. Jaded bobolarimizning xavotirini bugungi hayotimiz misolida ko'rishimiz mumkin. Qancha "oltin bosh"larning xorijda qolib ketayotganining sabablaridan biri ham shunda.

O'zga millat vakillari o'z ona tilini dunyoga yoyishga harakat qilayotgan bir paytda biz yurtimizning o'zida ona tilimizning aslligini saqlab qolishga ham urinmayapmiz. O'zimiz qadrlamaydigan o'zbek tilini yot millat egalari qayerdan ham qadriga yetardi. Ona tilini loaqal o'zimiz or qilmaydigan darajada bilishimiz lozim va shart.

**Kurshida ERNAZAROVA.**

## ODAMLAR OQILLARGA ERGASHADI

Davlat arbobi Nazir Rajabov siymosiga chizgilar

Xalqimizda "dunyo yaxshi insonlarga suyanadi", degan gap bor. Ammo bu yaxshilar orasida ham Xudo nazar qilganlari, iqtidorli va noyob zakovat egalari mavjud. O'sha davr sharoitiga ko'ra, ko'p bolali oddiy dehqonning farzandi, qirq besh yoshidayoq viloyatning birinchi rahbari, mamlakat va respublika davlat mukofoti sohibi bo'lgan Nazir Rajabov ana shunday mo'jizaviy xislatli insonlardan biri edi.



Ammo bu kishining ulug'li aslida boshqa xislatida. Uni haqiqiy yetakchi, to'laqonli rahbar, insoniy fazilatlar jam bo'lgan inson sifatida ko'rish mumkin. Uzoq vaqt ishlamay yurganiga qaramasdan, Naman-gan va Samarqand viloyatlarida yashovchi katta yoshdagilar, bir marta bo'lsa-da, u bilan munosabatda bo'lganlarning aksariyati haligacha Nazir akani yo'qlashadi yoki davralarda gapirib turishadi.

Esimda, 1987-yilning oktabrida viloyat partiya qo'mitasi zali mas'ul xodimlar va faollar bilan to'la. To'planganlarga viloyatning yangi birinchi rahbari tanishtirildi. Minbarga gavadasi ham, ko'rinishi ham, liboslari ham ko'rkam inson chiqdi. Avval o'zini tanishtirib, keyin ro'yxat bo'yicha har birimiz bilan tanishdi. Bu inson "Esdan chiqarmanglar, men mana shu bitta ro'yxat orqali chehrangizga qarab, har biringizni eslab qoldim", dedi. Tabiiyki, biz bu gapga ishonqiramadik, ammo haqiqiy munosabatlarda bu inson ochiq, to'g'riso'z va xotirasi kuchli ekaniga ishonch hosil qildik.

Yangi rahbar hech qanday qog'ozsiz, ortiqcha harakatsiz, zaldagilarning holatiga qarab so'zladi: oddiy, tushunarli, eng muhimi, yurakdan gapirdi. Bunday paytda rasmiy minnatdorchiiliklarga o'rganib qolganlar hayratini yashira olishmadi. U go'yo biz bilan suhbatlashardi, chunki nutqida o'zining birinchi rahbarligini bildiradigan ishora ham yo'q. Aksincha, hammani samimiy munosabatda ishlashga chorladi, muammolarga birgalashib yechim topishga chaqirdi. Mening esimda qolgan shuki, Nazir aka shunday chiroyli, badiiy va xalq iboralarini qo'lladi, bu esa uning ko'p gazeta va kitob o'qiganini ko'rsatib turardi. Hatto so'zining oxirida rahbarlarga hamma matbuot va televizorni kuzatib borishi, kitob

o'qishi zarurligini ta'kidladi. Xullas, ertasigayoq viloyatda yangi rahbarning ochiqligi, bilimdonligi, adolat tomonida ekanligi, kamtarligi va muomaladagi ibrati odamlar o'rtasida tarqab ketdi. Binobarin, Nazir aka qurilish tresti boshqaruvchisi, vazir va Namanganda birinchi rahbar bo'lganida ham mehnatni tashkil etishga adolat va bilim bilan yondashganini viloyat. Shu boisdan bizning yilib o'ldik. qisqa muddatda o'zgacha kayfiyat, ishchanlik og'ushida qoldi. Birinchi kotib ish kunini avvalo, ertalabdan shahar birinchi rahbari, viloyat bosh arxitektori bilan birgalikda ko'chalarni aylantirishdan, odamlar bilan suhbatlashishdan boshlardi. Tabiiyki, boshqa rahbarlar ham shunday yo'l tutishga majbur bo'lishdi.

Nazir Rajabovning paxta yig'im-terimidani talabalar, maktab o'quvchilari va ularning o'qituvchilarini, vrachlar va hamshiralarni, viloyat partiya qo'mitasi va ijroqo'midan biriktirilgan xodimlarni qaytarishi chinakam bayramga aylandi. Odamlar bu insonning ma'naviy jasoratiga, oqilligiga tan berishdi. Aniqlik qilib aytadigan bo'lsak, viloyat birinchi rahbarining talabiga ko'ra, har kim o'z joyida o'ziga topishirilgan ish uchun javob berish tilimizga o'tildi.

Nazir aka nafaqat dehqonlar, balki oddiy kasb egalari, hatto o'rta bo'g'in rahbarlari bilan ham juda erkin suhbat qurdi, ularning mulohazalarini eshitdi, fikrlarini hisobga oldi. Bu esa odamlarda fidokorona ishlashga imkon yaratdi. Ayniqsa, davlat idoralari xodimlari o'z jamoasida, tizimida xato qilib qo'yamaslikan degan fikrdan, yangilik qilishdan qo'rqishmadi. Chunki ko'pchilikka nafi tegadigan takliflarni viloyatning birinchi rahbari chinakamiga qo'llab turdi. Buning ustiga, birinchi rahbar hisobot tarzidagi balandparvoz ma'lumotlarni qabul ham qilmas va ularni eshitmas

ham edi. Yig'ilishlarda yangi kitoblar, san'at asarlari, gazeta yangiliklari haqida to'lib-toshib gapirishlari, keskin munosabat bildirishlari bizni ham ana shunday faoliyat ko'rsatishga undadi.

Bir kuni viloyat partiya komitetiga tegishli shifoxonaga ayolimni ko'rgani bordim. Tashqaridagi hovlida suhbatlashib tursak, shifoxona darvozasi oldida qo'lga kichik kastryulcha ko'tarib kelayotgan Nazir Rajabovichga duch keldim, ikkinchi qo'lida tuguncha ham bor. Biz iltiqqina ko'rishdik, u kishi ham kulib, boshini qimirlatib o'tib ketdi. Turmush o'rtog'imdan "Bu kishini taniyanmi?", - deb so'radim. "Yo'q, tanimayman, lekin har kuni Buxorodan kelgan kampir oldiga ertalab va kechqurun kelib ketadi, u ayol ham nihoyatda ochiqqina ekan", - dedi.

Nazir aka o'z onasini oddiy bir farzanddek seva olgan inson, u volidasiga bir o'g'il qilishi kerak bo'lgan xizmatni qildi. Garchi katta rahbarlar uchun xizmat mashinasini muolaja binosi oldiga keltirish imkoniyati bo'lsa-da, u kishi mashinasini darvoza oldiga qo'yib, kirib keldi. Onasiga esa ovqatni bozor yoki oshxonadan emas, uyidan olib keldi. Bu voqea minglab rahbarlarga katta saboq bo'ldi.

Yaqinda eshitib qoldim, Nazir Rajabov 84 yoshga to'ldi. Eskicha hisob-kitobda ming oy umr ko'rdi. Bu yettita muhal, degani. Xalqimizda bunday xayrli kunlarda xalqparvar insonlarga, yaxshilarga duolar qilishi an'anasi bor. Men ham Samarqanddagi juda ko'plab shogirdlari, do'stlari, qalbiga yaqin insonlari qatorida u kishini ana shunday quvonchli kuni bilan tabriklamoqchimam. Samarqand sizni sevadi, Nazira aka.

**Akram AMINOV.**

## Yurakni asrang, yurakni!

Statistik ma'lumotlarning tasdiqlashicha, Yaponiyada yurak-qon tomir kasalligidan o'lim boshqa mamlakatlarga qaraganda to'rt marta kam ekan. Chunki yaponlar har kuni baliq iste'mol qiladi va haftasiga 5 soat jismoniy mashqlar bilan shug'ullanadi, uyquvi davomiyliigi 7,5 soatdan kam bo'lmaydi. Buning natijasida yapon erkaklarida insult 6,4 foizga, ayollarda 76 foizga, yurak ishemik kasalligi 80 foizga kamaygan.

Biz esa bunday hayot tarziga o'rganmaganmiz. Me'yorida ortiq go'sht, tuxum, yog'li va sho'r ovqatlar, yog'li sut mahsulotlari, shirinliklar iste'mol qilishimiz oqibatida insult xavfi 58 foizga oshib ketayotganiga aksariyat hollarda ahamiyat ham bermaymiz.

Odami yuragi mushagingning me'yorida ishlashi uchun birinchi o'rinda, kalsiy, magniy va vitamin "B" guruhi zarur. Biz kalsiyini me'yordan ancha kam iste'mol qilamiz. Bu esa gipertoniya kasalligining rivojlanishida asosiy omil hisoblanadi. Kalsiyini muntazam iste'mol qilish zararli xolesterinni 10 foizga kamaytirib, foydali

### Shifokor maslahatxonasi



xolesterinni 7 foizga ko'taradi.

Tomirlarning tonusi susayishi gipertoniya kasalligi rivojlanishi uchun birdan bir sababchidir.

Xalq tabobati yurak-qon tomir kasalligiga duchor bo'lganlarga do'lana gullari (boyarishnik) ni tavsiya etadi. Bu esa asab tizimlarini tinchlantirib, yurak urishi ritmi buzilishining oldini oladi.

Tuz miqdorining kunlik me'yorini 6 gramga tushirish kerak. Asosiysi, xolesterinni kamaytirish uchun pishiriqlarni iste'mol qilishni keskin kamaytirish lozim. Chunki ular tarkibida transyog'lar (margarin, shakar) bor.

**Bahrom ABDURAHMONOV,** tibbiyot fanlari nomzodi.

Toshkentdagi "JAR" sport-sog'lomlashtirish majmuasida o'zbek jang san'ati bo'yicha O'zbekiston chempionati yakunlandi.

## Samarqandlik sportchilar 22 oltin medalni qo'lga kiritdi

Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan kelgan 800 nafardan ziyod sportchi o'zbek jang san'atining bellashuv yo'nalishi bo'yicha musobaqalarda g'oliblik uchun kurash olib borishdi.

Janglar yakuni bo'yicha viloyatimiz sportchilari 22 ta oltin medalni qo'lga kiritgan holda peshqadamlik qilishdi.

Bu safargi chempionat bellashuvlari juda hayajonli va qizg'in bahslarga boy bo'ldi, deydi o'zbek jang san'ati federatsiyasi viloyat bo'limi kotibi Halim Yusupov. - Musobaqada 115 nafar sportchimiz qatnashib, 22 ta oltin, 15 ta kumush va 19 ta bronza medallariga ega chiqishdi.

G'olib va sovrindorlar milliy terma jamoa tarkibida 2023-yil sentabr oyida etnosport turlari bo'yicha Xiva shahrida bo'lib o'tadigan xalqaro festivalda Vatanimiz sharafini himoya qiladi.

**D.TO'XTAYEV.**



MATBUOT UYI  
Zarafshon  
С АМАРКАНДСКИЙ  
В ЕСТНИК

**MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi**

**Bosh muharrir: Farmon TOSHEV**

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 17 630 nusxada chop etildi. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

**QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56**

**BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61**

**MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.**

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

**Korxonalar manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

**Navbatchi muharrir:**

**G'.HASANOV.**

**Navbatchi:**

**D.TO'XTAYEV.**

**Sahifalovchi:**

**B.ABDULLAYEV.**



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda